

O'z-o'zidan bunday vaziyatda sinfdagi ayrim uyatchan va tortinchoq o'quvchilar ham darsga faol qatnasha boshlashi mumkin.

Masalan, faol usullardan biri muammoli vaziyat yaratish orqali dars o'tishda o'qituvchi o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'ladi va ularga muammoli savollarni beradi. O'quvchilar bergen savollarga guruhdagi ahzolar bilan o'zaro fikrlashib, umumiy javobni aytishlari kerak bo'ladi. Bunday usulda o'tilgan darsda uyatchan va tartinchoq o'quvchilar ham faol qatnasha boshlaganini ko'rish mumkin. Chunki, birinchidan, o'quvchilar musobaqa tarzida o'tilayotgan bu darsga faol qatnashib, g'olib bo'lish maqsadida bo'lsa, ikkinchidan, bunday vaziyatda o'quvchi doskaga chiqib hamma o'quvchilar oldida mavzuni tushuntirmasdan, faqat kichik guruhga o'z fikrini aytadi. Bu esa o'quvchida fikrini erkin aytma olishga sharoit tug'diradi. Shunday faol usullarni qo'llash orqali dars o'tish ko'proq qo'llanilsa o'quvchilardagi uyatchanlik va tortinchoqlik holatlari bartaraf etilib, ular endi nafaqat kichik guruhlarda, balki hamma o'quvchilar oldida ham erkin fikrlarini ifodalay olishlari mumkin.

Shunday ekan, bugungi kun pedagogikasi o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin, tortinmay aytish imkonini beradigan yangi interfaol usullarni hayotga yana ham chuqurroq tatbiq etish yo'lidan borilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ta'lim samaradorligini oshirish, davlat ta'lim standartlarining bajarilishini ta'minlash, ta'limning sifat ko'rsatkichini kafolatlashda zamonaviy pedagogik texnologiya hal qiluvchi omillardan bo'lib bormoqda.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayonida qo'llash jahon amaliyotida keng tarqalmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchini doimiy izlanishga, uzlusiz o'z ustida ishlashga undaydigan o'qitishning interfaol usullari kirib kelmoqda. Bu, o'z navbatida ta'limda samaradorlikni ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiya, uning asosiy tamoyillari, yangicha ishslash usullari, o'qituvchining hamda o'quvchining o'quv jarayonidagi o'rni, roli haqida bilib

borish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligini hosil qilishga xizmat qiluvchi vaqt oraligini qisqartirish, ta'lim jadallashtirishga yordam beradi. O'yinli texnologiyalardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo'ladiki, buning oqibatida har tahlim oluvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi. O'yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy ko'nikma va malakalarga aylanishini ta'minlabgina qolmay, balki ta'lim oluvchilarda muayyan aqloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga o'z hissasini qo'shadi. O'yin-mashqlarini tashkil etishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi, ta'limiy (didaktik) tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantirish hamda ijtimoiy. Ta'lim to'g'risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi"ni tahlim jarayoniga tatbiq etish bilan ta'imda sifat va samaradorlikka erishish

va shu orqali modernizatsiya qilingan ta'lif standartlari to'liq bajarilishini tamlash davri boshlandi.

Davlatimiz tomonidan yangi maktablar qurilishi, minglab maktablarni yangitdan rekonstruktsiya qilish, joriy ta'mirlash ishlari jadal surhatlar bilan olib borilmoqda. Maktablarimiz yangi qiyofaga, barcha qulayliklarga ega bo'lib bormoqda.

Maktablarni yangi jihozlar, asbob-uskunalar, takomillashtirilgan dasturlar, modernizatsiya qilingan, tajriba-sinovdan o'tgan standartlar, darsliklarning yangi avlodni bilan (ijara tariqasida) tahminlash, kompyuterlashtirish Davlat umummiliy dasturi asosida izchil amalga oshirilmoqda. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi.

Boshqacha qilib aytganda, zerikarli darslar o'rniga darslarni tashkil etishga mashuliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'lifni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda. Ta'limda moddiy baza, standart, o'quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasisin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv-biluv markazida esa o'quvchi turmog'ini taqozo etadi.